e-ISSN 3093-9534


KATTAQO‘RG‘ON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

OPEN ACCESS

# SCIENTIFIC BULLETIN

## Of the Kattakurgan State Pedagogical Institute

*International Peer-Reviewed Open Access Journal*



*PEDAGOGY*

*PSYCHOLOGY*

*EDUCATIONAL TECHNOLOGIES*

*INCLUSIVE EDUCATION*

VOLUME 1 | ISSUE 2 | YEAR 2026

www.journal.katdpi.uz

# Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti ilmiy axborotnomasi

e-ISSN-3093-9534

**Jurnalning maqsadi -** pedagogika va turdosh fanlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni nashr etish, innovatsion ishlanmalarni ommalashtirish, ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro tajriba almashinuvini qo'llab-quvvatlash.

## 2026-yil, 2-son (002)

### Jurnal sohalari

- ✓ Pedagogika va psixologiya fanlari
- ✓ Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi
- ✓ Ta’limda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar
- ✓ Ijtimoiy va gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi
- ✓ Inklyuziv ta’lim va maxsus pedagogika
- ✓ Zamonaviy jamiyatda iqtisodiy tahlillar

**"Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti ilmiy axborotnomasi"** ilmiy jurnali O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan ommaviy axborot vositasi sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

**Davlat ro‘yxatidan o‘tganlik guvohnomasi: № 1563876**
**Ro‘yxatga olingan sana: 2026-yil 5-may**
**Faoliyat turi:** Ommaviy axborot vositasi sifatida faoliyatni amalga oshirish.
**Nashr turi:** Ilmiy jurnal.
**Nashr tillari:** o‘zbek, rus va ingliz tillari.
**Tarqatilish hududi:** O‘zbekiston Respublikasi miqyosida.
**Tarqatilish shakli:** Onlayn.
Website: www.journal.katdpi.uz
E-mail: journal@katdpi.uz

**Jurnal muassis va nashriyoti:**
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti

Scan me!

2. Bulatov, S. (2009). Rangshunoslik. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
3. Egamov, X. (1981). Bo‘yoqlar bilan ishlash. O‘qituvchi.
4. Nabiyev, M. (1995). Rangshunoslik va rangtasvir texnologiyasi.
5. Shavqiyev, E. (2012). Talabalarda rangshunoslikka oid bilimlarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Metodik qo‘llanma. Tafakkur bo‘stoni.

# XX ASRNING 20–30-YILLARIDA SAMARQAND VILOYATI XOTIN-QIZLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTDAGI FAOLLIGI

***Guzal Normurodova***
***Saodat Abdujabborova***
***Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, tarix fanlari doktori, professor***
***Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, doktorant***

**ORCID:** *0000-0002-9542-4484*
*0009-0003-3825-0945*
**| E-mail** *guzalnormurodova@gmail.com*
*sabdujabborova1@gmail.com*
**DOI:** 10.68572/kdpi.2026.2.026

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada Samarqand viloyati misolida XX asrning 20–30-yillarida sobiq sovet ittifoqining barcha milliy respublikalarida kuzatilgan gender muammolariga oid masalalar tahlil qilingan. Ma’lumki, XX asr boshlarida Markaziy Osiyo hududida diniy qarashlar va an’analar ustunlik qilgan sharoitda ayollarning ijtimoiy hayot va ta’lim jarayonlarida ochiq ishtirok etishiga turli to‘siqlar mavjud edi. Sovet hokimiyatining dastlabki davrida amalga oshirilgan madaniy va siyosiy islohotlari natijasida 20–30-yillarda ilk ayol kadrlar jamiyat hayotiga kirib keldi. Safarbarlik harakatlariga qaramay, O‘zbekiston hududida, jumladan, Samarqandda ham ayollarning savodxonlik darajasi, shuningdek, ta’lim tizimi, ijtimoiy hayot, oila, kasbiy faoliyat va moddiy ta’minot bilan bog‘liq muammolar saqlanib qoldi. Ushbu muammolarni Samarqand viloyati misolida tahlil qilish tarix fani sohasidagi mavjud ilmiy bo‘shliqlarni to‘ldirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek ayollari, Samarqand viloyati, gender tenglik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar, kadrlar masalasi.

**Аннотация.** В данной научной статье на примере Самаркандской области анализируются вопросы, связанные с гендерными проблемами, наблюдавшимися в 1920–1930-е годы во всех национальных республиках бывшего Советского Союза. Известно, что в начале XX века в условиях преобладания религиозных представлений и традиций в Центральной Азии существовали различные препятствия для открытого участия женщин в общественной жизни и образовательном процессе. В результате культурных и политических реформ, проводившихся на начальном этапе советской власти, в 1920–1930-е годы в общественную жизнь вошли первые женщины-кадры. Несмотря на проводившиеся мобилизационные кампании, в Узбекистане, в том числе и в Самаркандской области, сохранялись проблемы, связанные с уровнем женской грамотности, системой образования, общественной жизнью, семейными отношениями, профессиональной деятельностью и материальным обеспечением женщин. Анализ данных проблем на примере Самаркандской области способствует восполнению существующих научных пробелов в областиисторическойнауки.

**Ключевые слова:** узбекские женщины, Самаркандская область, гендерное равенство, социально-экономические проблемы, кадровый вопрос.

**Abstract.** This scientific article analyzes issues related to gender problems observed in the 1920s–1930s in all national republics of the former Soviet Union, with particular reference to the

Samarkand region. It is well known that at the beginning of the twentieth century, under conditions where religious beliefs and traditional practices predominated in Central Asia, women faced various obstacles to their open participation in public life and education. As a result of the cultural and political reforms implemented during the early period of Soviet rule, the first generation of female cadres entered public life in the 1920s–1930s. Despite the mobilization campaigns carried out during this period, problems related to women's literacy, the education system, participation in public life, family relations, professional activities, and material well-being persisted in Uzbekistan, including the Samarkand region. An analysis of these issues based on the example of the Samarkand region contributes to addressing existing scholarly gaps in the field of historical research.

**Keywords:** Uzbek women, Samarkand region, gender equality, socio-economic problems, personnel issues.

Kirish qismi (Introduction)

XX asrning 20-yillar boshida sovetlarning “madaniy qurilish” strategiyasi o‘z oldiga Turkiston xalqlari ongiga “yangi madaniyat”ni singdirish bahonasida “kommunistik tarbiya”ni amalga oshirish maqsad qilindi. Xususan, xotin-qizlar savodxonligini oshirish, ularning ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi mavqeini faollashtirish va kadrlar tayyorlash borasidagi siyosati o‘zbek xotin-qizlari hayotidagi tub o‘zgarishlarga olib keldi.

**Dolzarblik (Research Background)**

XX asr 20-yillariga qadar Turkistonda 7 mln. 149 ming kishi istiqomat qilgan bo‘lsa, 1922-yilga kelib, ularning soni bor-yo‘gi 4 mln. 835 ming kishiga kamaygan[3]. Bunga asosiy sabab, Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, ocharchilik va aholining og‘ir turmush sharoiti bo‘lgan. Bu davrda Samarqand viloyati tarkibida 4 ta: Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Xo‘jand va Samarqand uyezdlari bo‘lgan. Samarqand aholisi dinamikasining o‘sishiga mamlakatning boshqa rayonlaridan ko‘chib kelganlar ham ta’sir ko‘rsatgan. 1920-yil Samarqand viloyatida demografik jarayon gender asosda ro‘yxatga olingan bo‘lsa, 1922-yilda esa aholini ro‘yxatga olish jarayoni kishilarning millati, soni, oilaviy masalalari, yoshi, xalq xo‘jaligi orqali shakllantirilgan[4].

**Tadqiqot metodologiyasi**

O‘zbekiston SSR aholisi sonining muttasil va ancha yuqori sur’atlar bilan oshib borishi natijasida ittifoq doirasida salmog‘i ham ortib bordi. 1924-yilda respublika aholisining umumiy soni 4 mln 258 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, Samarqand shahar aholisi 866 ming kishi, ya’ni 20,3 foizni, qishloq aholisi 3 mln 392 ming 79,7 foizni tashkil etgan[5]. Samarqand O‘zbekiston SSRning poytaxti bo‘lgan paytda shahar aholisi ham o‘sib bordi. *Jadval 1.*

***1926-yil Samarqand viloyati aholisining (xo‘jaliklar kesimida) tahlili[6]:***

| Yil | Xo‘jalik | Shahar aholisi | Qishloq aholisi |
|---|---|---|---|
| 1914 | 164553 | 147496 | 750364 |
| 1924 | 107296 | 143668 | 489269 |
| 1925 | 108930 | 146600 | 496720 |
| 1926 | 112757 | 153930 | 514170 |

Mazkur jadvaldagi Samarqand viloyatining o‘n ikki yillik xo‘jalik (oila)lar soni tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, bu davrda aholining katta qismi qishloqlarda yashagan. Faqat 1924-1925-yillarda aholi kamayib, oilalar soni keskin pasaygan. 1926-yilda oilalar soni biroz ko‘tarilgan bo‘lsada, Birinchi jahon urushidan oldingi darajaga yetmagan. Ta’kidlash lozimki, Samarqand O‘zbekistondagi eng ko‘pmillatli viloyat hisoblangan. 1926 yilda o‘zbeklar 30 mingdan ziyod kishi bo‘lib, shulardan ayollar 45% dan ziyod bo‘lgan, qolganini erkaklar tashkil etgan.

[3] O’z MA, R-9-jamg’arma, 3-ro’yxat, 64-hujjat, 60-61-varaqlar.
[4] O’z MA, R-21-jamg’arma, 1-ro’yxat, 202-hujjat, 70-varaq.
[5] Asanov G. R. O’zbekiston SSR aholisi. T., “O’zbekiston”. 1987. B. 5-6.
[6] O’z MA, R-837-jamg’arma, 7-ro’yxat, 161-hujjat, 15-varaq.

**Natijalar va muhokama (Results and Discussion)**

20-30 yillarda respublikada, jumladan Samarqandda xotin-qizlar erkaklar bilan bir safda turib, ijodiy mehnat qilishda, ilm-ma’rifatli bo‘lib, jamiyat va davlat boshqaruvi sohalarida faollashib bordilar. Ular orasidan minglab mexanizatorlar, injener, shoir, san’atkor, olima, davlat va jamoat arboblari yetishib chiqdi[7]. Ayollar mavqei va maishiy madaniyatni oshirishda maorif va teatrning o‘rni katta bo‘ldi. Yangi hayot tartibini singdirish orqali aholining madaniy tafakkurini uyg‘otishga alohida e’tibor qaratilgan. Xotin-qizlarning mehnat va turmush sharoitini yanada yaxshilash, madaniy-maishiy muassasalarga qatnashib turish ishlarini yaxshi yo‘lga qo‘yish xotin-qizlarning dunyoqarashi, tushunchasi, ongining takomillashib borishini ta’minlagan.

30-yillardan boshlab ko‘pchilik ayollar yoshi, bola-chaqalarining ko‘pligi, oilaviy ishlarda band bo‘lishlariga qaramay ijtimoiy ishlab chiqarish sohasida ishlashni afzal ko‘rgan. Xotin-qizlar davlat ishida 6-7 soat mehnat qilganliklaridan tashqari, oilada yana 3-4 soat mehnat qilganlar. Dam olish kunlari esa 6-7 soat vaqtlarini oila ishlariga sarf etgan[8]. Shuning uchun ham xotin-qizlar erkaklarga nisbatan o‘z ustlarida ishlashlari hamda madaniy hordiq chiqarishlarida ya’ni gazeta-jurnal o‘qish va boshqa ijtimoiy masalalarda qiyinchiliklarga uchragan.

Mahalliy millat xotin-qizlarini ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb etish maqsadida sovet hokimiyatining dastlabki davrida joylarda delegat yig‘ilishlari bilan bir qatorda dehqon ayollari uylari tashkil etildi. Partiyaviy ishlarning shu va ko‘pgina boshqa ish shakllari xotin-qizlarning kollektiv mehnat qilishi va davlatni boshqarish sohasida amaliy ko‘nikmalar orttirishlarida o‘ziga xos maktabga aylandi. Mamlakatni industrlashtirish siyosati tufayli, xotin-qizlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga ommaviy ravishda jalb etish jarayoni boshlandi. Yangi tashkil qilingan sanoat korxonalarida, ayniqsa to‘qimachilik sanoatidagi sexlarga ko‘p sonli mahalliy millat xotin-qizlari jalb etish jarayoni, ularning malakalarini va umumiy madaniy saviyalarini oshirish bilan birga olib borildi.

1925-1926-yillardagi saylovlarda partiya va davlat tuzilmalari sovet qurilishiga va siyosiy hayotga o‘zbek ayollari ishtirokini ta’minlashga ham o‘z e’tiborini qaratdi. Bu yillarda xotin-qizlar uchun yangi maktablar, klublar, qizil burchaklar va maxsus kooperativ do‘konlar xizmat qildi. 1925-yilda Samarqand ayollar klubida 220 ta a’zo bo‘lib, ularning ko‘plari klub ishlarida faol qatnashgan. 1926-yilda respublika injener-texnik xodimlarining atigi 2 nafari, tibbiy xodimlarning 16 nafari, o‘qituvchilar hamda madaniyat xodimlarining 206 nafari o‘zbek ayollaridan iborat bo‘lgan[9].

Sanoat sohasi uchun kadrlar tayyorlash respublika, kasaba uyushma va komsomol tashkilotlari oldidagi muhim vazifaga edi. SHu munosabat bilan, Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining 1921-yilda qabul qilingan “Ishchi, xizmatchi xotin-qizlar mehnat sharoitini yaxshilash to‘g‘risida”gi ko‘rsatmasida muassasa yoki korxonalar shtatini qisqartirish paytida xotin-qizlar erkaklar bilan teng malakali bo‘lgan hollarda ayollarni mumkin qadar ishga olib qolish kerakligi ko‘rsatildi[10]. Ayni vaqtda xotin-qizlarni erkaklar bilan teng huquqda partiya, kasaba uyushma, kooperativ, sovet qurilishiga jalb qilishga katta ahamiyat berildi.

Samarqand shahri respublikaning boshqa viloyatlaridan farqliroq, siyosiy va ma’muriy markazi bo‘lganligi sabab, bu yerda markaziy, xo‘jalik va boshqa tashkilotlar joylashtirilgan. 1924-yilda viloyatda 58 ta davlat sanoat korxonalari, 8 kooperativ, 72 xususiy korxonalar ishlab turgan edi. Ularda jami 4178 ishchi va xizmatchi bo‘lib, 3 davlat va 13 xususiy fabrika va zavodlar esa ishlar hali yo‘lga qo‘yilmagan edi. Zavod va fabrikalarning ishchi kadrlar saflari, asosan shahardagi ishsizlar va qishloq joylardan ko‘chib kelgan kishilar hisobiga ortib bordi[11].

1925-yil 4-iyunda O‘z KP(b) MQ va O‘z SSR Mehnat Xalq komissarligi xotin-qizlar mehnatini o‘rganish jarayonida aniqlashicha, respublika bo‘yicha 1925-yilda ishchilarning 4680 tasini (1600 tasi o‘zbek), ya’ni 9,7% ini ayollar tashkil etgan, shulardan 125 tasi, 0,2%i balog‘atga yetmagan qizlardan iborat bo‘lgan[12]. Umumiy ishlab chiqarishda 481 ta, oziq-ovqat sanoatida 902 ta, 53,8%

[7] O’z MA, R-86-jamg’arma, 1-ro’yxat, 5579-hujjat, 51-varaqlar.
[8] O’z MA, R-86-jamg’arma, 1-ro’yxat, 5532-hujjat, 442-varaq.
[9] Alimova M. “Hujum”ning so’nmas yog’dusi. T., «Bilim». 1987. B. 42.
[10] O’z MA, R-21-jamg’arma, 1-ro’yxat, 202-hujjat, 29-varaq.
[11] Samarqand tarixi. Toshkent, “Fan”, 1970. 110-varaq.
[12] SamVDA, 1735-jamg’arma, 1-ro’yxat, 3-hujjat. 78-varaq.

xotin-qiz qatnashgan. Keltirilgan aholining 50%i, jami 481 kishi malaka oshirgan. 119 ta malaka oshirgan ayollarning 24,74%i ishchi kurslarini o‘qigan. Ularning 16 tasi mahalliy ayollardan bo‘lib, 33%ni tashkil etgan. 164 ayolning 34,8%i, mahalliy ayollarning 46 tasi, 9,7%i o‘rta maxsus malakaga ega bo‘lgan[13]. Quyidagi jadvalda 1933-yilda Samarqanddagi korxonalaridagi xotin-qizlar ulushi keltirildi:

*Jadval 2*. **1933-yilda Samarqand korxonalarida xotin-qizlar ulushi[14]:**

| **Korxonalar** | **Jami ishchi** | **Oktyabr oyi boshida** | **Yangi ishchi** | **Kelgan ayol ishchi** | **Ketgan ayollar soni** | **Ayollar soni** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| “Hujum” f | 1054 | 799 | 255 | 189 | 275 | 177 |
| “Pilla” kor. | 226 | 158 | 41 | 25 | 65 | 38 |
| “To‘qim” z. | 885 | 679 | 37 | 29 | 95 | 49 |
| “Vino” №1 | 144 | 43 | 39 | 4 | 28 | 4 |
| “Vino” №2 | 80 | 17 | 65 | 10 | 20 | 17 |
| “Piva” z. | 151 | 24 | 9 | - | 18 | 5 |
| “Limonad” zavodi | 78 | 13 | 9 | 4 | 3 | 2 |
| “Non” zav. | 170 | 41 | 78 | 43 | 23 | 15 |
| “Bug‘doy-Tegirmon” | 43 | 4 | 8 | 3 | 7 | 2 |
| “Makaron” fabrikasi | 21 | 3 | 20 | 10 | 12 | 3 |
| “Meva” zav | 240 | 149 | 114 | 58 | 5 | 2 |
| “Guruch” z. | 71 | 6 | 28 | 8 | 6 | 3 |
| “Choy” f. | 307 | 142 | 87 | 21 | 71 | 39 |

Ayollar xalq xo‘jaligida 50% ni tashkil qilishgan edi. Hayotda erkak va ayolning tengligi uchun qilingan harakat oqibatida og‘ir jismoniy mehnat talab qiladigan sohalarga ham jalb qilingan. Ammo mehnatga haq erkaklarga qaraganda 25-30% kam to‘langan[15]. Qishloq joylarida xotin-qizlarning ish soatlari kuniga (davriy) 13 soatni tashkil etgan. Bunday sharoitda ayollar ham ishlab, ham ro‘zg‘or qilib, oilaga qaragan, ovqat pishirib, bolalarini ham tarbiyalagan. Shunga qaramasdan, so‘rov o‘tkazilganda 27,1 foiz ayol o‘z ishi (daladagi toliqtiruvchi mehnat) mamnun bo‘lgan. Ammo, bor-yo‘g‘i 6,5 foiz xotin-qiz bunga qarshi fikr bildirgan[16]. Bunga sabab, barcha ayollarning ishlashi, ham oilaviy turmushini yaxshi yo‘lga qo‘yish imkoniga ega bo‘lmagan.

Umuman, O‘zbekistonning janubiy va markaziy hududlari, xususan, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida xotin-qizlar masalasi qishloq xo‘jaligida o‘ziga xos usulda hal qilinar edi. Bu yerda dehqon ayollarni sut, jun sotish, ipak qurti boqish va pilla yetishtirish kabi turli xil qishloq xo‘jalik kooperativlariga tortish ustida ish olib borilgan. 1930-yilda O‘rta Osiyoning barcha jamoa xo‘jaliklarida xotin-qizlarning brigadalarini tashkil qilish belgilandi. Bu jarayon 1931-yil 11-iyundagi O‘zKP(b) MQning ayollarni kolxozlarga ommaviy safarbar qilish haqidagi qaroridan so‘ng yanada kuchaydi. 1931-yilda bahorgi ekin mavsumida o‘zbek xotin-qizlarining 32711 ta ayollar brigadalari tuzilgan. Yil oxirida kelib, ularning soni 42487 tani tashkil etdi[17]. O‘zbek ayollari dalaga ommaviy safarbar qilina boshladi.

Xotin-qizlar brigadalari zimmasiga yer haydashdan tortib, hosilni yig‘ib olgunga qadar bo‘lgan davrdagi hamma dala ishlarini bajarish vazifasi yuklatildi. O‘zbekistonning 20 ta rayonida 2560 nafar

[13] O’z MA, 86-jamg’arma, 1-ro’yxat, 4434-hujjat, 507-varaq.

[14] Samarqand VDA. 210-jamg’arma, 2-ro’yxat, 7-hujjat. 3-varaq.

[15] Алимова Д.А. Женский вопрос в Средней Азии. Т.: 1991. С. 46.

[16] To’qayeva Z. A. O’zbekiston xotin-qizlari qishloq xo’jaligida. T., “Fan”, 1991. B. 18.

[17] Алимова Д. А. Женский вопрос в Средней Азии. Т. 1991. Б. 47

“ilg‘or” ayol mehnat qilgan. 1931-yildan boshlab, Samarqand viloyatida 20% ayollar traktor va shofyorlikka o‘qigan[18]. Bu ishdan ko‘zlangan maqsad, xotin-qizlarni kolxoz va sovxoz ishlarida qatnashtirishlarini kuchaytirish bo‘lgan.

Xulosa (Conclusion)

Xulosa qilib aytganda, 1920-1930-yillarda barcha sobiq ittifoqi mamlakatlari qatorida, O‘zbekistonda ham xotin-qizlar masalasi mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot rivojida dolzarb masalalardan biri hisoblangan. Mazkur davrda xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini o‘zgartirish, ularni ta’lim olishga jalb etish, savodsizlikni tugatish, ishlab chiqarish va jamoat hayotidagi ishtirokini kengaytirish, huquqiy mavqeini mustahkamlash hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan ma’lum siyosat amalga oshirildi. Sovet davri tarixshunosligida 1920-1930-yillardagi xotin-qizlar masalasi, asosan, kommunistik mafkura va marksistik-lenincha metodologiya doirasida o‘rganildi.

XX asr 20-yillarning birinchi yarmida Turkisonning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida yuz bergan beqarorliklar uning madaniy qurilish jabhalarida ham o‘z ifodasini topdi. Mahalliy “eski turmush” bilan bolshevikcha “yangi turmush” o‘rtasida ayovsiz kurash bordi. Xotin-qizlar ijtimoiy hayotga jalb qilinib, jamiyatda ularning erkaklar bilan teng huquqligi ta’minlanib borilgan bo‘lsa-da, ikkinchi tarafdan ular mafkuraviy siyosatga buysundirilgan sovet kadrlari va ishchi kuchlar sifatida shakllantirildi.

Ta’kidlash lozimki, Samarqand O‘zbekistondagi eng ko‘pmillatli viloyat hisoblangan. 1926 yilda umumiy aholi orasida ayollar 45 foizdan oshgan edi. 1927-yilda “Hujum” harakatida faol qatnashgan Samarqand xotin-qizlarning ko‘pchiligi, davlat ishchilari, talabalar, o‘qituvchi, partiya a’zolari, ilg‘or ayollardan iborat bo‘lgan. Paranji tashlash va dinning inkor etilishi, uning xotin-qizlar taqdiri bilan bog‘liq salbiy oqibatlarning kelib chiqishiga turtki bo‘ldi. Xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish jarayonini sun’iy yo‘llar bilan jadallashtirish maqsadida olib borilgan harakat davomida, o‘zbek ayollarining o‘ziga xosligi, ularning milliy va diniy an’analari, ma’naviy qadriyatlari hisobga olinmadi.

Mamlakatni industrlashtirish siyosati tufayli, xotin-qizlarni ijtimoiy ishlab chiqarishga ommaviy ravishda jalb etish jarayoni boshlandi. Yangi tashkil qilingan sanoat korxonalarida, ayniqsa to‘qimachilik sanoatidagi sexlarga ko‘p sonli mahalliy millat xotin-qizlari jalb etish jarayoni, ularning malakalarini va umumiy madaniy saviyalarini oshirish bilan birga olib borildi. Partiya, sovet va jamoat tashkilotlarining ko‘p qirrali madaniy-siyosiy ishlari natijasida, xotin-qizlar sotsialistik jamiyat qurilishining faol quruvchilariga aylandilar.

Xalq xo‘jaligida ham faol bo‘lgan ayollar aholining 50 foizini tashkil qilgan. Hayotda erkak va ayolning tengligi uchun qilingan harakat oqibatida og‘ir jismoniy mehnat talab qiladigan sohalarga ham jalb qilingan. Ammo mehnatga haq erkaklarga qaraganda 25-30% kam to‘langan. Qishloq joylarida xotin-qizlarning ish soatlari kuniga 13 soatni tashkil etgan. Bunday sharoitda ayollar ham ishlab, ham ro‘zg‘or qilib, oilaga qaragan va bolalarini ham tarbiyalagan. Yuqorida ko‘rsatilgan ma’lumotlar, o‘zbek ayollarining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga faol kirib borganligidan, lekin boshqa tomondan ijtimoiy, kasbiy, moddiy muammolar va qiyinchiliklarni boshidan kechirganligini guvohlik beradi.

**Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:**


1. O‘z MA, R-9-jamg‘arma, 3-ro‘yxat, 64-hujjat, 60-61-varaqlar.
2. O‘z MA, R-21-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 202-hujjat, 70-varaq.
3. Asanov G. R. O‘zbekiston SSR aholisi. T.: O‘zbekiston, 1987. B. 5-6.
4. O‘z MA, R-837-jamg‘arma, 7-ro‘yxat, 161-hujjat, 15-varaq.
5. O‘z MA, R-86-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 5579-hujjat, 51-varaqlar.
6. O‘z MA, R-86-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 5532-hujjat, 442-varaq.
7. Alimova M. “Hujum”ning so‘nmas yog‘dusi. T.: Bilim, 1987. B. 42.
8. O‘z MA, R-21-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 202-hujjat, 29-varaq.


[18] O’z MA, R-10-jamg’arma, 1-ro’yxat, 2020-hujjat, 184-varaq.

9. Samarqand tarixi. Toshkent: Fan, 1970. B.110.
10. SamVDA, 1735-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3-hujjat. 78-varaq.
11. O‘z MA, 86-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 4434-hujjat, 507-varaq.
12. Samarqand VDA. 210-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 7-hujjat. 3-varaq.
13. Алимова Д.А. Женский вопрос в Средней Азии. Т., 1991. С. 46.
14. To‘qayeva Z. A. O‘zbekiston xotin-qizlari qishloq xo‘jaligida. T.: Fan, 1991. B. 18.
15. Алимова Д. А. Женский вопрос в Средней Азии. Т. 1991. Б. 47
16. O‘z MA, R-10-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 2020-hujjat, 184-varaq.

# ZAMONAVIY JAMIYATDA IJTIMOIY MUAMMOLAR: MOHIYATI, TURLARI VA ULARNI HAL ETISh YO‘LLARI.

***Xudayberdiyeva Gulnora Xursandovna***

***Termiz davlat universiteti, Davlat va huquq asoslari kafedrasi katta o‘qituvchisi t.f.f.d. (PhD).***

**ORCID:** **0009-0009-7755-3707** **| E-mail** **gulixudayberdieva43@gmail.com**

**DOI:** 10.68572/kdpi.2026.2.027

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda uchraydigan ijtimoiy muammolarning mohiyati, ularning asosiy turlari, kelib chiqish sabablari va oqibatlari sotsiologik nuqtai nazardan kompleks tahlil qilingan. Klassik va zamonaviy sotsiologik nazariyalarga tayanib, ijtimoiy muammolar iqtisodiy, demografik, xulq-atvorga oid, ta’limiy, migratsion va ekologik turlarga tasniflangan. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metodologiya, ikkilamchi ma’lumotlar tahlili, normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun tahlili hamda turli mamlakatlar ijtimoiy ta’minot modellarining qiyosiy tahlili qo‘llanilgan. Olingan natijalar ijtimoiy muammolarning o‘zaro bog‘liq hodisa ekanligini va ularni yumshatish alohida chora-tadbirlar emas, balki ko‘p darajali, muvofiqlashtirilgan siyosat orqali amalga oshirilishi lozimligini ko‘rsatadi. Maqolada, shuningdek, O‘zbekistonda 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat islohotlari, jumladan bandlikni rag‘batlantirish, adresli ijtimoiy himoya va kambag‘allikni qisqartirish mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilgan. Maqola yakunida bandlik dasturlarini kuchaytirish, ijtimoiy himoyani raqamlashtirish, kasb-hunar ta’limini isloh qilish va hududlararo tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy muammo, ijtimoiy tengsizlik, kambag‘allik, ishsizlik, oila instituti, ijtimoiy himoya, ijtimoiy siyosat, deviant xulq-atvor, yoshlar muammosi, ijtimoiy barqarorlik, farovonlik davlati, ijtimoiy kapital.

## KIRISH

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida ijtimoiy munosabatlar tizimida turli xil qarama-qarshiliklar, nizolar va nomutanosibliklar vujudga kelib turadi. Bunday holatlar fan tilida “ijtimoiy muammolar” tushunchasi bilan ifodalanadi. Globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, iqtisodiy tizimlardagi tarkibiy o‘zgarishlar va demografik jarayonlar ijtimoiy muammolarning mohiyati hamda ko‘lamini yanada murakkablashtirmoqda.

Nemis sotsiologi U.Bek ta’kidlaganidek, zamonaviy jamiyat “xavf-xatarlar jamiyati”ga aylanib bormoqda (Beck, 2000), bu esa ijtimoiy muammolarning an’anaviy shakllaridan tashqari yangi, noaniq va transmilliy tusdagi muammolarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli ijtimoiy muammolarni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish, ularning sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash hamda amaliy yechim yo‘llarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifaga aylangan.

**MUNDARIJA**


| Muallif F.I.Sh. | Maqola mavzusi | Sahifa |
|---|---|---|
| **PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARI** | | |
| Abdullayeva Aropatxon Rustamovna | Oila mustahkamligini ta’minlovchi omillarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari | 8–11 |
| Nuralieva Dildora Mamurjonovna | Internatsional oilalardagi shaxslararo munosabatlar tadqiqot predmeti sifatida | 11–15 |
| Sirojiddinov Fazliddin Nasriddinovich | Talabalarda muhandislik layoqatini rivojlantirish | 15–20 |
| Madatov Ilhom Yusup o‘g‘li, Miyliyeva Gavhar Otamurodovna | Maktabgacha ta’lim jarayonida bolalar og‘zaki nutqini rivojlantirish: didaktik talablar va samarali pedagogik yondashuvlar | 21–24 |
| Alimnazarov Olim Mengliboy o‘g‘li | Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining texnik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari | 25–29 |
| Abdusattarova Sarvinoz Norqo‘zi qizi | Didactic mechanism of integrating 4K skills in teaching the subject of pedagogy: a stage-by-stage model and assessment criteria | 29–35 |
| Igamov Sobir Salimovich | O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda xalq hunarmandchiligidan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari | 35–41 |
| Yo‘ldoshev Sobitali Zohidjon o‘g‘li, Ma’murova Mohirabonu | Tibbiyot oliygohi talabalarining o‘quv faoliyatiga moslashuv kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari | 42–46 |
| Gadaymuratov Shuhrat Mamayusupovich | Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi | 47–53 |
| **ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH METODIKASI** | | |
| Abduqaxhorova Chamanxon Shavkatjon qizi, Ma’murova Mohirabonu | Oltiariqsoy va Janubiy Farg‘ona kanali irmoqlarida tarqalgan Kushakevich yalangbalig‘i – Iskandaria kuschakewitschi (Herzenstein, 1890)ning morfobiologik ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili | 54–58 |
| Turaev Mukhammadi, Turaev Umarkhon, Solayjanova Mohira | CFD analysis of pressure and velocity distribution in a Venturi meter | 58–64 |
| Mardiyev Rasul, Boymurodov Jo‘rabek | Lp(Γ) fazolarda siljishli funksional operatorlarning bir tomonlama teskarilanuvchanligi | 64–69 |
| Rajabov Suxrob Xudoyberdiyevich, Turdimurodov Otabek Farxod o‘g‘li | Yassi kanalda qovushqoq suyuqlikning nostatsionar oqimining tebranma xususiyati | 70–77 |
| Rajabov Suxrob Xudoyberdiyevich, Turdimurodov Otabek Farxod o‘g‘li | Yassi kanalda reologik murakkab suyuqlikning nostatsionar oqimi tadqiqotlari | 78–84 |
| Mavlonov To‘lqin, Yuldoshev Baxtiyor Shodmonovich | Egiluvchan aylanma qobiqlarning kuchlanganlik-deformatsiyalanish holati | 84–91 |
| **TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR** | | |
| Mirzamahmudov Azamatjon Baxtiyor o‘g‘li, Tursunov Bekzod Axrorovich | Kiberxavfsizlik fanini o‘qitishda sun’iy intellektning roli | 91–95 |
| Mirzamahmudov Azamatjon Baxtiyor o‘g‘li | Neyron tarmoqlari asosida adaptiv boshqarish tizimlarini o‘qitish metodikasi | 96–99 |
| Tursunov Bekzod Axrorovich, Mirzamahmudov Azamatjon Ibrohimjon o‘g‘li | Ma’lumotlarni himoya qilish usullari va kiberxavfsizlikning asosiy tushunchalari | 99–102 |
| Imamnazarov Erkin Dexkanaliyevich | Elektronika va sxemalar fanini o‘qitishda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o‘rni | 102–107 |
| Mirzakarimov Mirsharoffiddin Mirzaabdurahimovich | Zamonaviy ta’limda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar integratsiyasi: imkoniyatlar, samaradorlik va istiqbollar | 107–110 |
| Sayidov Nozimjon Abdulnosirovich, Mirzaqosimova Jamila Rustamjon qizi, Ahmadjonova Sevara Hasanboy qizi | O‘quvchilarning individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirishda sun’iy intellektning o‘rni | 110–114 |

| Muallif F.I.Sh. | Maqola mavzusi | Sahifa |
|---|---|---|
| Alimnazarov Olim, Jalilov Karomatillo | Umumta’lim maktab o‘quvchilarining robototexnika bo‘yicha ijodiy kompetentligini rivojlantirishning asoslari | 115–120 |
| **ZAMONAVIY JAMIYATDA IQTISODIY TAHLILLAR** | | |
| Uzoqov Farxodjon G‘afforovich | Raqamli O‘zbekiston sharoitida sun’iy intellektning iqtisodiy imkoniyatlari | 121–125 |
| **IJTIMOIY VA GUMANITAR FANLARNI O‘QITISH METODIKASI** | | |
| Samarova Aziza Muhiddin qizi | XX asr 60–70-yillarda O‘zbekiston SSR viloyatlarida demografiya (Samarqand viloyati misolida) | 125–128 |
| Shavqiyev Elyor Raxmonberdiyevich | Tasviriy va amaliy san’at mashg‘ulotlarida rangshunoslik bilimlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari | 129–133 |
| Guzal Normurodova, Saodat Abdujabborova | XX asrning 20–30-yillarida Samarqand viloyati xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi faolligi | 133–138 |
| Xudayberdiyeva Gulnora Xursandovna | Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy muammolar: mohiyati, turlari va ularni hal etish yo‘llari | 138–144 |
| Baxtiyorova Munavvar Baxtiyorovna | Developing students’ environmental competence through the poems of Abdulla Oripov: a case study of the Grade 5 “Literature” textbook | 144–150 |
| G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna, O‘ljaboyeva Marjona | Frazeologizmlar – xalqning milliy-madaniy tafakkurini aks ettiruvchi til birliklari | 150–154 |
| Rashidova Umida Mansurovna, D. Suyunova | Frazeologik birliklarning milliy-madaniy semantikasini leksikografik tavsiflash tamoyillari | 154–161 |
| Salimov Yusufjon G‘afurjonovich | To‘y va marosimlarni ixchamlashtirish davr talabidir (sotsiologik tahlil va tavsiyalar) | 161–165 |
| Xolxujayeva Yulduz Uralboyevna | XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston aholisining demografik rivojlanish tendensiyalari | 165–171 |


**СОДЕРЖАНИЕ**


| Автор(ы) | Название статьи | Стр. |
|---|---|---|
| **ПЕДАГОГИКА И ПСИХОЛОГИЯ** | | |
| Abdullayeva Aropatxon Rustamovna | Социально-психологические особенности факторов, обеспечивающих устойчивость семьи | 8–11 |
| Nuralieva Dildora Mamurjonovna | Межличностные отношения в интернациональных семьях как предмет исследования | 11–15 |
| Sirojiddinov Fazliddin Nasriddinovich | Развитие инженерных способностей у студентов | 15–20 |
| Madatov Ilhom Yusup o‘g‘li, Miyliyeva Gavhar Otamurodovna | Развитие устной речи детей в процессе дошкольного образования: дидактические требования и эффективные педагогические подходы | 21–24 |
| Alimnazarov Olim Mengliboy o‘g‘li | Технологии развития технического творчества будущих учителей технологии | 25–29 |
| Abdusattarova Sarvinoz Norqo‘zi qizi | Дидактический механизм интеграции навыков 4K в преподавании педагогики: поэтапная модель и критерии оценивания | 29–35 |
| Igamov Sobir Salimovich | Педагогические условия использования народных ремёсел в профессиональной ориентации учащихся | 35–41 |
| Yo‘ldoshev Sobitali Zohidjon o‘g‘li, Ma’murova Mohirabonu | Психолого-педагогические основы развития компетентности студентов медицинского вуза в адаптации к учебной деятельности | 42–46 |
| Gadaymuratov Shuhrat Mamayusupovich | Методика развития профессиональных компетенций будущих учителей технологического образования | 47–53 |
| **МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ЕСТЕСТВЕННЫХ И ТОЧНЫХ НАУК** | | |
| Abduqaxhorova Chamanxon Shavkatjon qizi, Ma’murova Mohirabonu | Сравнительный анализ морфобиологических показателей гольца Кушакевича — Iskandaria kuschakewitschi (Herzenstein, 1890), распространённого в притоках Олтиариқсая и Южного Ферганского канала | 54–58 |
| Turaev Mukhammadi, Turaev Umarkhon, Solayjanova Mohira | CFD-анализ распределения давления и скорости в расходомере Вентури | 58–64 |
| Mardiyev Rasul, Boymurodov Jo‘rabek | Односторонняя обратимость функциональных операторов со сдвигом в пространствах Lp(Γ) | 64–69 |